

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 14 707,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 foizga teng bo'ldi.

2022- yil yanvar- mart oylarida YAHM deflyator indeksi 113,6 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 14 193,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 foizga yuqori bo'ldi.



Yanvar-mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	mlrd. so'm		o'sish sur'ati, % da
	2021- yil	2022- yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	12 193,9	14 707,2	106,2
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 962,9	14 384,1	106,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	231,0	323,1	106,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	11 962,9	14 384,1	106,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	902,8	1 072,4	103,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	9 539,6	11 444,9	106,3
sanoat	9 142,7	10 986,7	106,3
qurilish	396,9	458,2	106,6
Xizmatlar	1 520,5	1 866,8	107,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	343,5	424,1	110,2

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>o‘shish sur‘ati, % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	205,3	230,7	107,8
boshqa xizmatlar	971,7	1 212,0	106,1



Yanvar- mart oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)



2022- yil




2022- yilning yanvar- mart oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (110,2 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari (107,8 foiz), sanoat (106,6 foiz), qurilish (106,3 foiz) tarmoqlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat hissasiga to'g'ri keldi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 19,6 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2021-yilning yanvar-martiga nisbatan 0,4 foizga kupaydi.



2022- yil yanvar- mart oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi, (% da)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari

